Yuldashev Doniyor Tairovich	
PENSIYA JAMG'ARMALARIDA HISOBNI TASHKIL ETISH VA XARAJATLAR SMETASI IJROSI BO'YICHA HISOBOTI TAHLILI	1005
Nurmanov Karjavbay Tilevbaevich, Nurmanov Din-Axmed Tilevbaevich	
MINTAQA SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1011
Axmedova Xumora Ibroxim qizi	
ELEKTR MARKAZLASHTIRISH TIZIMIDAGI BOSHQARISH VA NAZORAT RELELI BLOKINI (P62) ZAMONAVIY, KONTAKTSIZ ELEMENTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH HAMDA UNING MATEMATIK MODELINI ISHLAB CHIQUISH	1015
Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li	
KLASTERLAR FAOLIYATIDA DAVLAT QO'LLAB-QUVVATLASHI VA INVESTORLAR ROLI	1026
Karimova Nilufar Sadridin qizi	
ИССЛЕДОВАНИЯ И РАЗРАБОТКИ ШЛАКООБРАЗУЮЩЕЙ ОСНОВЫ ПОКРЫТИЙ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ИЗНОСОСТОЙКОЙ НАПЛАВКИ НА БАЗЕ МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫХ РЕСУРСОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1030
Садыков Жахонгир Насырджанович	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA QURILISH SANOATINING INVESTITSION JOZIBADORLIGI	1039
Boltayev Umidjon Talant o'g'li	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФРАКРАСНЫХ ДАТЧИКОВ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В КОНТРОЛЕ КАЧЕСТВА ЗЕРНОВЫХ ПРОДУКТОВ	1044
Мухамедханов Улугбек Тургудович	
MINTAQA IQTISODIYOTINING IQTISODIY RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1049
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA SUN'IY INTELLEKT VA BIG DATA ASOSIDA INNOVATSION XIZMATLARNI JORIY ETISH	1054
Nuriddinov Ziyovuddinxon Zuxriddin o'g'li	
ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЕ УПРАВЛЕНИЕ ПРОЦЕССАМИ РАЗДЕЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ БАЗ ЗНАНИЙ И ЦИФРОВЫХ МОДЕЛЕЙ	1059
Абдуллева Камола Рустамовна	
MATERIALLARNI MURAKKAB YASSI TRAEKTORIYALAR BO'YICHA DEFORMASIYALANTIRISHDA PLASTIK DEFORMASIYALANISH JARAYONLARI	1065
A.Xakimov, X.Xakimov	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ	1073
Касымова Нозима Омиловна	
OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	1077
Bekjanov Dilmurad Yo'ldashovich	



AUDITORLIK TEKSHIRUVINI REJALASHTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	1082
Saidova Sevara Abdimumin qizi	
TIBBIYOT XODIMLARI MEHNAT FAOLLIGINI RAG‘BATLANTIRISHNING IQTISODIY JIHATLARI.....	1089
Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	
RAQAMLASHTIRISH — ILM-FAN INTEGRATSIYASI, INSTITUTSIONAL O‘ZGARISHLAR VA SANOAT RIVOJLANISHINING ASOSIY OMILI.....	1094
Umurzak Ablakulovich Radjabov	
FUQAROLIK JURNALISTIKASIDA GENDER MUVOZANATI: ILMIY YONDASHUVLAR TADRIJI	1101
Zakirova Oisha Vohid qizi	
AGLOMERATSIYA BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH BO‘YICHA XORIJIY MAMLAQATLAR TAJRIBASI VA UNDAN O‘ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI	1109
Mardonov Shohruh Shuhrat o‘g‘li	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIDA LOGISTIK JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH VA TA‘MINOT ZANJIRLARINI BOSHQARISH.....	1114
Nasimov Baxtiyor Vasiyevich	
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH BO‘YICHA DAVLAT DASTURLARI BAJARILISHIDA DAVLAT–XUSUSIY SHERIKCHILIKDAN FOYDALANISH	1122
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	
ВЛИЯНИЕ ПАРАМЕТРОВ СЕТЕВОГО ТРАФИКА НА КАЧЕСТВО ОБСЛУЖИВАНИЯ В СОВРЕМЕННЫХ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННЫХ СЕТЯХ: ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ	1127
Усманова Наргиза Бахтиёрбековна, Саиткамолова Гузаль Камильжон кизи	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA ORGANIK MAHSULOT ISHLAB CHIQRISHNING BARQAROR RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA.....	1141
Mamajonova Gulbaxor Toxirjon qizi	
MAHALLIY BUDJET IJROSINI TA‘MINLASHDA G‘AZNACHILIK TIZIMINING INSTITUTSIONAL ROLI VA SAMARADORLIGI	1145
Tangriyeva Farida Abdulkarimovna	
O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA MEXANIKA MUHANDISLIGI TERMINLARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI	1150
Mansurova Nafisa Qamariddinovna	
BUDJET SIYOSATI VA DAVLAT MOLIYASI BARQARORLIGI: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI	1154
Karjavova Xurshida Abdumalikovna	
RESTORAN XIZMATLARI SOHASIDA REJALASHTIRILGAN ISTE‘MOL XULQ-ATVORI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI	1159
Kamoliddin Mamatqulovich Ibodov	
MASHINASOZLIK KORHONALARIDA RAQAMLI EGIZAKLARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH	1163
Yusupov Azamat Alijonovich	
SUN‘IY INTELLEKT VA AVTOMATLASHTIRILGAN TIZIMLARNING PERSONALNI BOSHQARISHDAGI O‘RNI VA SAMARADORLIGI	1168
Axmedov Muzaffar Shokirjonovich	
MOLIYAVIY HISOBOTDA FIRIBGARLIK VA XATOLARNI ANIQLASH MASALALARI	1173
Xajimuratov Nizomjon Shukurullayevich	
BANKLAR FAOLIYATI MOLIYAVIY NATIJADORLIGINI TA‘MINLASHNING OSIYO MAMLAKATLARI TAJRIBALARI.....	1178
Alimjanova Dilrabo Sobirjanovna	



XALQARO TAJRIBA ASOSIDA YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQQA TORTISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1183
Mahmadazizov Eldorjon Marifjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING KREDIT SIYOSATI ORQALI KREDIT RISKLARNI BOSHQARISH.....	1187
Anvarov Asliddin Nabijon o'g'li	
DAVLAT BUDJETI MABLAG'LARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA MOLIVAVIY NAZORATNING AHAMIYATI	1191
Temirov Muradjon Najmitdinovich	
EGILUVCHI TEMIR-BETON ELEMENTLARNING KUCHLANGANLIK– DEFORMATSIYALANUVCHANLIK HOLATIDA BETON DEFORMATSIYASINI HISOBGA OLISH	1195
Xolmirzaev Sattar Abdujabbarovich	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ АО «УЗБЕКНЕФТЕГАЗ» ПО ВНЕДРЕНИЮ МСФО 15 НА КОНТРАКТЫ С ПОКУПАТЕЛЯМИ	1201
Тошпулатова Мунисабону Иброхим кизи	
BUXORO VILOYATI AGROSANOAT SOHASIDA INNOVATSION MARKETINGNING JORIY ETISH HOLATI, HUDUDIY XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	1209
Tuksanov Ilxomjon Ismatovich	
TIJORAT BANKLARI KREDITLASH AMALIYOTINI SUG'URTA XIZMATLARI ORQALI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	1216
Yusupov Ruslan Muxtarovich	
BANK SEKTORI RIVOJLANISHIDA MARKETING INSTRUMENTLARIDAN FOYDALANISH.....	1223
Dushamov Maxmudjon Maksudbekovich	
TURIZM BOSHQARUVIDA RAQAMLI TIZIMLARI VA ULARNING AMALIYOTDA TADBIQ ETISHDA XORIJ TAJRIBASI	1228
Najmiddinov Sulton Nurali o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MILLIY VALYUTADA JALB QILINGAN DEPOZITLARNING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	1232
Melikov Otabek Maxmadaminovich	
NAVOIY VILOYATI AGRAR STRUKTURASINING IQTISODIY TAVSIFI	1237
Xamrokulov Sindor Qahramonovich	
FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF YOUTH ENTREPRENEURSHIP IN THE EDUCATION SECTOR.....	1241
Alieva Elnara Ametovna	
FANLAR INTEGRATSIYASI ASOSIDA O'QITISHNING NAZARIY-MEZONLARI.....	1250
Shoximardanova Niginabonu Shavkatovna	
ГРАФОАНАЛИТИЧЕСКИЙ РАСЧЁТ И ГЕОМЕТРИЧЕСКИЙ СИНТЕЗ СИНХРОНИЗАТОРА В БИЦИКЛОВОМ ПЛАНЕТАРНОМ МЕХАНИЗМЕ С РЕВЕРСИРУЮЩИМИСЯ САТЕЛЛИТАМИ.....	1253
Алимов Бахтияр Милибаевич, Абдукайимов Ботиржон Ниязкулович	
HUDUDLARNING INVESTITSION SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI VA USTUVOR YO'NALISHLARI	1258
O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich	
BANK MAHSULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI.....	1264
Xujamuratov Abbos Mardonovich	



ISLON BANK MAHSULOTLARINI JORIY ETISH METODOLOGIYASI: XALQARO TAJIRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1270
Voxidov Oybek Roziqovich	
SUG'URTA BOZORIDA INVESTITSION FAOLIYATNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	1275
Fayziyev Oybek Raximovich	
DETERMINANTS OF WAGES IN THE MODERN LABOUR MARKET: A LITERATURE REVIEW.....	1279
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
ЦИФРОВЫЕ ПРОЕКТЫ И ИННОВАЦИОННЫЕ СИСТЕМЫ В ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОЙ ОТРАСЛИ.....	1288
Каракулов Фарход Зайпудинович	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI	1294
Achilov Ilmurad Nematovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING AKADEMIK XAVFLARINI BOSHQARISHDA SUG'URTA MEXANIZMLARINI JORIY ETISH.....	1299
G'aniyev G'olibjon Abdiraxmanovich	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA MERCHANDAYZING STANDARTLARINI QO'LLASH MEXANIZMINI ISHLAB CHIQISH MASALALARI.....	1305
Safarov Baxtiyor Djurakulovich	
TO'QIMACHILIK KORXONALARI B2B BOZORIDA MARKETING STRATEGIYALARINING INNOVATSION TAHLILI	1314
Sapayeva Nilufar Kadambayevna	
FRANSUZ TILIDA FONO-GRAFOSTILISTIK VOSITALAR: TIPOLOGIYA VA KLASSIFIKATSIYA	1319
Islomov Dilshod Shomurodovich	
PRACTICAL ASPECTS OF SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT IN MAHALLAS	1324
Gafurov Ubaydullo Vakhobovich	
GUDVILL VA XARIDDAN KELGAN FOYDANI MHXS ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISHNING ILMIY-AMALIY MASALALARI.....	1329
Abdurasulov Jamshidbek Axmad ug'li	
BANKLARDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISH SAMARADORLIGI	1336
Xabibulloxoji Muhammadsolih Alisher o'g'li	
MARKETING AS A DECISIVE ELEMENT IN THE SUCCESSFUL INTRODUCTION OF INNOVATIVE PRODUCTS TO THE MARKET.....	1343
Davlyatova Gulnara	
KORXONALARDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA MARKETING KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	1348
Akramov Toxir Abdiraxmanovich	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISHDA MARKETING VA LOGISTIKA SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY TAMOIYILLARI	1353
Djurayev Bekzod Bekmatovich	
"O'ZBEKNEFTGAZ" AJNING IQTISODIY BARQARORLIGI VA FAOLIYATINING RIVOJLANISHI	1359
Salomova Sarvinoz Salimovna	



BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA AYLANMA IQTISODIYOT TAMOYILLARI VA CHIQINDISIZ ISHLAB CHIQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1364
Kurbanova Dildora Abduraxmanovna	
ENERGIYA TEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR VA QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY VA EKOLOGIK SAMARADORLIGI	1370
Kurbanova Dildora Abduraxmanovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ELEKTR VA MAISHIY TEXNIKA ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH	1377
Sonaev Sanjar Nurmamatovich	
MAJBURIYATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHDA HISOB SIYOSATINING AMALIY AHAMIYATI	1382
Uzoqova Feruza Baraka qizi	
IJTIMOIIY-IQTISODIY BARQARORLIK VA "OVERTURIZM" OMILLARI KONTEKSTIDA HUDUDIIY TURISTIK DESTINATSIYALAR ISTIQBOLLARINI BAHOLASH	1387
Isrofilov Firdavs Ibrohim o'g'li	
RAQAMLI KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA GRAFIK DASTURLAR ROLI	1394
Axmatova Asila Akmaljon qizi	
BOSHQARUV HISOBIDA BUDJETLASHTIRISH VA UNGA OID YONDASHUVLAR	1397
B.Yu.Maxsudov	
KICHIK VA O'RTA KORXONALARNING HAYOT BOSQICHLARI TAHLILI ASOSIDA AUDIT O'TKAZISH USLUBIYOTINING USTUNLIK VA KAMCHILIKLARI	1402
Muydinov Erkin Jamaldinovich	
TURIZM SOHASINI INVESTITSIYALASHDA INNOVATSION FAOLIYATNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHNING MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1408
Temurbek Olimovich Mamayunusov	
ГИДРОДИНАМИЧЕСКИЕ И РЕОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДВИЖЕНИЯ ТЕКУЧИХ СРЕД С УЧЁТОМ УСКОРЕНИЯ ДЕФОРМАЦИИ	1415
Мирзоев Акмал Ахадович, Ахмадов Илхом Актамович	
O'ZBEKISTON YAIMINING UZOQ MUDDATLI RIVOJLANISHIDA INVESTITSIYALAR, AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI (AKT) VA TASHQI SAVDONING TA'SIRI: KOINTEGRATSIYA TAHLILI	1423
Sobirov Yo'ldoshboy Ro'zimboevich	
РАЗРАБОТКА КЛАССИФИКАЦИОННОЙ СХЕМЫ КОМПОНЕНТОВ КЕРАМИЧЕСКИХ ФЛЮСОВ И МАТЕМАТИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ ФОРМИРОВАНИЯ ХИМИЧЕСКОГО СОСТАВА МЕТАЛЛА ШВА ПРИ АВТОМАТИЧЕСКОЙ ДУГОВОЙ СВАРКЕ	1431
Эрматов Зиядулла Досматович	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA XALQARO BOSHQARUVNI JORIY ETISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	1437
Raxmatillayev Sarvarbek Botirjonovich	
INTERNATIONALIZATION AS A TOOL FOR INSTITUTIONAL DEVELOPMENT IN EMERGING HIGHER EDUCATION SYSTEMS	1442
Yunusova Shirin Adxamovna	
NEFT-GAZ SANOATINING GLOBAL ENERGETIKA BOZORIDAGI STRATEGIK VA IQTISODIY ROLI	1448
Salomova Sarvinoz Salimovna	



BUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI NAZORAT TIZIMINI TASHKIL QILISHNING XUSUSIYATLARI	1453
Saidakbarov Xusniddin Abdusalomovich	
INVESTITSION FAOLLIKNI TA'MINLASHDA MOLIYA-KREDIT MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1458
Madaminov In'omjon Ozodovich	
MARKETING STRATEGIYASI YORDAMIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1465
Isakova Naima Ikromjonovna	



MARKETING STRATEGIYASI YORDAMIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI



Isakova Naima Ikromjonovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
“Ekonometrika” kafedrası PhD v.b dotsenti
ORCID: 0009-0008-3370-6882

Annotatsiya. Mazkur maqolada “O‘zbekiston—2030” strategiyasi doirasida hududlarda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish vazifalari hamda global raqobat sharoitida barqaror iqtisodiy o‘rinishni ta‘minlash zarurati nuqtai nazaridan marketing strategiyasining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Xizmatlar bozorida raqobatbardoshlikni oshirish, mijozlar ehtiyojlariga mos xizmatlar taklif etish, brendni shakllantirish, xizmatlar sifatini ta‘minlash hamda zamonaviy marketing vositalaridan samarali foydalanish masalalari amaliy jihatdan yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: xizmat ko‘rsatish, servis, marketing strategiyasi, raqobatbardoshlik, mijozlar ehtiyoji, fidoyi mijozlar, xizmat ko‘rsatish sifati.

Abstract. This article analyzes the role and importance of marketing strategy in the context of implementing the “Uzbekistan–2030” Strategy, aimed at developing the service sector in the regions and ensuring sustainable economic growth under conditions of global competition. The study practically examines effective approaches to enhancing competitiveness in the services market, offering customer-oriented services, building strong brands, ensuring service quality, and utilizing modern marketing tools.

Keywords: service sector, services, marketing strategy, competitiveness, customer needs, customer loyalty, service quality.

Аннотация. В статье анализируется роль и значение маркетинговой стратегии в контексте реализации стратегии «Узбекистан—2030», направленной на развитие сферы услуг в регионах, а также необходимости обеспечения устойчивого экономического роста в условиях глобальной конкуренции. В практическом аспекте рассматриваются вопросы повышения конкурентоспособности на рынке услуг, формирования предложений, ориентированных на потребности клиентов, развития бренда, обеспечения качества услуг и эффективного использования современных маркетинговых инструментов.

Ключевые слова: сфера услуг, сервис, маркетинговая стратегия, конкурентоспособность, потребности клиентов, лояльные клиенты, качество услуг.

KIRISH

Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratilgan xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaro uchun o‘z salohiyatini to‘liq namoyon etishga xizmat qiladigan zarur shart-sharoitlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma‘naviy barkamol avlodni tarbiyalash, shuningdek, global ishlab chiqarish tizimining muhim bo‘g‘iniga aylangan barqaror va raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish hamda adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta‘minlash maqsadida “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot

strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamalari natijalari asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2023-yil 11-sentyabrda PF-158-sonli "O'zbekiston—2030" strategiyasi to'g'risidagi farmon¹ qabul qilindi.

Mazkur farmonga muvofiq, barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini yuksaltirish doirasida hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Xususan, xizmat ko'rsatish va servis tarmoqlarini kengaytirish orqali xizmatlar hajmini sezilarli darajada oshirish, o'rta va yirik shaharlar hamda aholisi 300 ming kishidan ortiq bo'lgan hududlarda zamonaviy bozor, IT, ta'lim, tibbiyot, yuridik, san'at, turizm, mehmonxona, umumiy ovqatlanish va transport xizmatlarini rivojlantirish, shuningdek, shaharsozlik loyihalari doirasida infratuzilmasi mavjud, aholi gavjum ko'chalardagi bo'sh yer maydonlaridan oqilona foydalanish orqali savdo, maishiy, sayilgoh va ko'ngilochar xizmatlar tarmog'ini kengaytirish ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, shahar markazlarida xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan markaziy ko'chalarni tashkil etish, "Yangi O'zbekiston" massivlari va xalqaro avtomobil yo'llari bo'yida zamonaviy savdo hamda servis obyektlarini barpo etish, bozorlarni ilg'or loyiha tashkilotlari ishtirokida xavfsizlik va qulaylik talablariga to'liq javob beradigan savdo majmualariga aylantirish vazifalari ham belgilab berilgan.

Mazkur ustuvor yo'nalishlardan kelib chiqib, xizmat ko'rsatish sohasining savdo, maishiy, sayilgoh va ko'ngilochar xizmatlarini rivojlantirishda marketing strategiyasidan samarali foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bugungi kunda xizmatlar bozorida raqobat muhiti tobora murakkablashib bormoqda. Texnologik taraqqiyot, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardagi o'zgarishlar hamda globalashuv jarayonlari xizmat ko'rsatish subyektlaridan yangi yondashuvlar va innovatsion yechimlarni talab etmoqda. Shu bois marketing strategiyasi nafaqat korxonaning bozordagi mavqeini mustahkamlash, balki uning raqobatbardoshligini oshirishning muhim strategik vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Ilmiy-nazariy jihatdan strategiya mujassamlashtirilgan rejalashtirish siyosati bo'lib, u xo'jalik faoliyatida korxonaning uzoq muddatli rivojlanish yo'nalishlarini belgilashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, xizmat ko'rsatish sohasida marketing strategiyasining vazifalaridan oqilona va tizimli foydalanish raqobatbardoshlikni ta'minlashning ustuvor sharti hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Marketing strategiyasi xizmat ko'rsatish sohasida raqobatbardoshlikni ta'minlashning muhim nazariy va amaliy vositasi sifatida ko'plab olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Jumladan, Ibodov (2022-yil) marketing tadqiqotlarini bozor ehtiyojlarini aniqlash hamda mijozlarga mos qiymat taklifini shakllantirishning muhim mexanizmi sifatida talqin etadi. Kotlyarevskaya (2019-yil) strategik marketing orqali tashkilotlarning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlash, bozor segmentatsiyasini samarali amalga oshirish va raqobatchilardan farqlanish imkoniyatlarini kengaytirish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Voronin (2019-yil) esa korxona strategiyasini tanlash jarayonida tashqi muhit omillari va ichki salohiyat uyg'unligini muhim metodologik shart sifatida ko'rsatadi.

Xizmat ko'rsatish sohasiga xos marketing yondashuvlari asosan xizmat sifati, brendni shakllantirish va mijozlar bilan barqaror munosabatlarni rivojlantirishga tayanishini Yarunina (2020-yil) o'z ilmiy tadqiqotlarida ta'kidlaydi. Homburg va hammualliflar (2020-yil) marketing mukammalligi korxonalarning investitsion jolibadorligi hamda bozor qiymatini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatishini ilmiy asoslab bergan. Shuningdek, "O'zbekiston—2030" strategiyasida hududlarda xizmatlar sohasini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilanishi marketing strategiyalarini amaliyotga joriy etish zaruratini yanada kuchaytiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda xizmat ko'rsatish sohasida marketing strategiyasining raqobatbardoshlikni oshirishdagi rolini o'rganish maqsadida kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini marketing, strategik boshqaruv hamda xizmatlar iqtisodiyoti yo'nalishidagi ilmiy manbalar tashkil etadi. Tahlil jarayonida mantiqiy umumlashtirish, taqqoslash va tizimli yondashuv usullaridan samarali foydalanildi. Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, "O'zbekiston—2030" strategiyasi doirasida belgilangan maqsad va vazifalar chuqur tahlil qilinib, ularning xizmatlar sohasi rivojiga ta'siri baholandi.

Tadqiqotning empirik qismi asosan konseptual va tavsiyaviy yo'nalishga ega bo'lib, xizmat ko'rsatish subyektlarida marketing strategiyalarini amaliyotda qo'llash tajribalarini umumlashtirishga qaratildi. Marketing strategiyasining asosiy elementlari — maqsadli auditoriyani aniqlash, raqobat muhitini tahlil qilish, brendni rivojlantirish hamda xizmatlar sifatini oshirish mexanizmlari — mantiqiy tahlil asosida o'rganildi. Olingan natijalar ilmiy jihatdan asoslangan xulosalar chiqarish va amaliy takliflar ishlab chiqish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>




TAHLIL VA NATIJALAR

Erkin bozor munosabatlari sharoitida strategiya korxonaning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlovchi muhim boshqaruv vositasi sifatida namoyon bo'lib, bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Strategiya, avvalo, tezkor harakat bilan yakunlanadigan jarayon emas, balki korxonaning barqaror o'sishi va mustahkamlanishini ta'minlovchi umumiy yo'nalishlarni belgilashga xizmat qiladi. Ifodalangan umumiy strategiya strategik loyihalarni ishlab chiqishda izlanish va tahliliy yondashuvdan foydalanish imkonini berishi, shuningdek, muayyan yo'nalishlarda mavjud imkoniyatlarni samarali amalga oshirish hamda strategik maqsadlarga mos kelmaydigan variantlardan ongli ravishda voz kechishni ta'minlashi lozim. Real iqtisodiy sharoitda korxona belgilangan maqsadlarga erishguniga qadar strategiyaga ehtiyoj saqlanib qoladi, maqsad amalga oshirilgach esa strategiyaning ahamiyati o'zgarib boradi. Aksariyat hollarda strategiyani ishlab chiqish raqobat muhiti sharoitida amalga oshiriladi va strategik qarorlar qabul qilish jarayonida aniq raqobatchilarni aniqlash bilan birga muhim axborotlar shakllanadi. Shu bois strategiyaning muvaffaqiyatli qo'llanilishi raqobat muhitini chuqur tahlil qilish bilan uzviy bog'liqdir.

Strategiya biznes maqsadlarini amalga oshirish, mahsulot va xizmatlar uchun mustahkam hamda ijobiy obro'-e'tiborni shakllantirish, shuningdek, iste'molchilar tomonidan tanlanish ehtimoli yuqori bo'lgan takliflarga e'tiborni yo'naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. U iste'molchilarning xabardorligini oshirish va sotuv hajmini ko'paytirish maqsadida bir yoki bir nechta asosiy g'oyalarni yagona konsepsiya doirasida birlashtiradi. Strategik muqobil yo'lni tanlashga ta'sir ko'rsatadigan omillar doirasi nihoyatda keng bo'lib, ularni miqdoriy jihatdan baholash murakkab jarayon hisoblanadi. Mazkur omillar orasida korxonaning tashqi muhit tomonidan qanday qabul qilinayotgani hamda uning ichki salohiyatidagi o'zgarishlarni tahlil qilish muhim o'rin egallaydi.

Korxona rahbariyati tomonidan tanlanadigan strategiya xavf-xatar darajasi, avvalgi strategiyalar tajribasi, mulk egalari manfaatlar hamda vaqt omilining aniqligi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, strategiyani tanlash va uni samarali boshqarishda rahbarlarning kasbiy mahorati, mas'uliyatli va mantiqiy yondashuvi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, rahbariyatdagi o'zgarishlar, yetakchining bilim darajasi va boshqaruv salohiyati tashkilotning kelajakdagi rivojlanish istiqbolini belgilab beradi.

Marketing esa bir martalik tadbir emas, balki uzluksiz va tizimli jarayon bo'lib, marketing maqsadlarini rejalashtirish hamda ularga erishishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Marketing strategiyasini shakllantirish korxonaning biznesni qanday yuritishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, shu sababli uni ehtimoliy natijalarni hisobga olgan holda puxta rejalashtirish talab etiladi. Mazmun va mohiyatiga ko'ra marketing strategiyasi strategik rejalashtirishning keng qamrovli vositasi bo'lib, u biznes faoliyatini izohlash, mahsulot va xizmatlarning bozordagi holati hamda rolini aniqlash, asosiy mijozlar va raqobatchilarni tavsiflash, zarur marketing taktikalarini belgilash, shuningdek, marketing rejasini ishlab chiqish va uning samaradorligini baholash imkonini beradi (1-rasm).



1-rasm. Xizmat ko'rsatish sohasida raqobatbardoshlikni ta'minlash bosqichlari.

Xizmat ko'rsatish sohasida marketing strategiyasining samaradorligi, avvalo, maqsadli auditoriyani aniq belgilash bilan uzviy bog'liqdir. Har bir korxona o'z faoliyatini qaysi iste'molchi guruhiga yo'naltirayotganini aniqlab olishi natijasida mazkur segment ehtiyojlariga mos mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, auditoriya xususiyatlariga mos tanlangan marketing vositalari va usullari bozor sharoitida raqobat ustunligini ta'minlashga xizmat qiladi. Marketing strategiyasini shakllantirish jarayonida raqobat muhitini chuqur tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etib, bunda raqobatchilarning strategiyalari, taklif etilayotgan xizmatlar assortimenti, narx siyosati hamda mijozlarga ta'sir mexanizmlarini o'rganish orqali raqobatchilardan farqlanuvchi noyob afzalliklarni aniqlash mumkin.

Xizmatlar sohasida raqobatbardoshlikni ta'minlash innovatsiyalarni joriy etish va xizmat sifatiga doimiy e'tibor qaratishni talab etadi. Marketing strategiyasi yangi texnologiyalarni tatbiq etish, zamonaviy boshqaruv usullaridan foydalanish hamda xizmat ko'rsatish jarayonlarida yuqori sifat va qulaylikni ta'minlash imkonini



beradi. Mijozlar ehtiyojlari va xohish-istaklarini chuqur o'rganishga asoslangan yondashuv kompaniyalarga xizmatlarni haqiqiy talablar bilan moslashtirish va shaxsiylashtirilgan xizmat tajribasini yaratish imkonini beradi. Shu bilan birga, brendni shakllantirish va uni izchil mustahkamlash, samarali reklama va bozorga chiqish strategiyalaridan foydalanish, shuningdek, sodiq mijozlar bazasini rivojlantirish korxonaning raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim omillar hisoblanadi. Ayniqsa, yuqori sifatli, tezkor va barqaror xizmat ko'rsatishni ta'minlash tashkilotning bozordagi mavqeini mustahkamlab, uzoq muddatli raqobat ustunligini kafolatlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xizmatlar sohasida raqobatbardoshlikni oshirishda marketing strategiyasining ahamiyati alohida o'rin tutadi. Bozor sharoitida raqobatda muvaffaqiyatga erishish uchun kompaniyalar marketing strategiyalarini puxta va samarali tarzda ishlab chiqishlari, mijozlar ehtiyojlari va xohish-istaklariga mos xizmatlarni taklif etishlari, ushbu ehtiyojlarning o'zgarishini doimiy ravishda tahlil qilib borishlari, shuningdek, innovatsion yechimlarni izchil joriy etishlari hamda brendni rivojlantirishga qaratilgan choralarni tizimli amalga oshirishlari zarur. Mazkur yondashuv xizmatlar sifatini oshirish va iste'molchilar bilan uzoq muddatli barqaror munosabatlarni shakllantirish imkonini beradi.

Marketing strategiyasi, o'z navbatida, kompaniyalarga xizmat faoliyatini rivojlantirish hamda bozorda barqaror raqobat ustunligini ta'minlash uchun aniq va istiqbolli yo'nalishlarni belgilash imkonini yaratadi. Shu nuqtai nazardan, xizmat ko'rsatish sohasida marketing strategiyalarini hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda ishlab chiqish, maqsadli auditoriya tahliliga asoslangan xizmatlar paketini shakllantirish, raqamli marketing vositalaridan faol foydalanish hamda xizmat sifatini baholashga qaratilgan indikatorlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, brendni mustahkamlash va fidoyi mijozlar bazasini kengaytirishga yo'naltirilgan uzoq muddatli marketing dasturlarini amalga oshirish xizmatlar sohasida raqobatbardoshlikni oshirishning samarali yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2023-yil 11-sentyabrdagi «O'zbekiston—2030» strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2023-yil 12-sentyabr, 06/23/158/0694-son. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
2. Ibodov K. M. Marketing tadqiqotlari: o'quv qo'llanma. — Toshkent: "Iqtisodmoliya" nashriyoti, 2022-yil. — 260 b., 172-bet.
3. Котляревская И. В. Стратегический маркетинг: учебное пособие / И. В. Котляревская; РФ Олий таълим ва фан вазирлиги. — 3-е изд., перераб. и доп. — Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2019. — 138 с.
4. Косарева Ю. В. Маркетинговая стратегия — основа успешного бизнеса [Электронный ресурс]. — Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/marketingovaya-strategiya-osnova-uspeshnogo-biznesa>
5. Воронин Н. В. Специфика выбора стратегии развития предприятия // Вестник науки и образования. — 2019. — № 12–2 (66). — С. 17–20.
6. Ярунина Т. А. Теоретические основы разработки стратегии развития организации // Актуальные исследования. — 2020. — № 2 (5). — С. 55–58.
7. Homburg C., Theel M., Hohenberg S. Marketing Excellence: Nature, Measurement, and Investor Valuations [Electronic resource]. — Available at: <https://journals.sagepub.com/doi/abs/10.1177/0022242920925517>



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100